



The legal status of prosecutors in civil proceedings and prospects for its enhancement

Shukrullaev SIYOVUSH¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

participant in civil proceedings, grounds and forms of prosecutor's participation, application, protest, procedural rights, procedural obligations, age.

ABSTRACT

This article examines the concept of the prosecutor's legal status in civil proceedings within the framework of current legislation and its significance today. It explores the grounds and forms of the prosecutor's participation in civil proceedings, as well as issues related to the prosecutor's legal status in our national legislation. Furthermore, scientifically substantiated proposals of significant practical importance have been developed, the legislation of developed countries has been analyzed, and relevant scientific conclusions, proposals, and recommendations are presented.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp288-293>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomi va uni rivojlatirish istiqbollari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchisi, prokuror ishtirokining asoslari va shakllari, ariza, protest, protsessual huquq, protsessual majburiyat, yoshi.

Mazkur maqolada amaldagi qonunchilik doirasida fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomi tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati, fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish asoslari va shakllari, milliy qonunchiligimizda prokurorning huquqiy maqomi bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan. Shuningdek, ilmiy asoslangan va muhim amaliy ahamiyat kasb etuvchi takliflar ishlab chiqilgan, rivojlangan davlatlar qonunchiligi tahlil qilingan bo'lib, tegishli ilmiy xulosalar, takliflar va tavsiyalar taqdim etilgan.

¹ Teacher, Tashkent State University of Law. E-mail: siyovush.law@gmail.com

Правовой статус прокурора в гражданском процессе и перспективы его развития

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

участник гражданского судопроизводства, основания и формы участия прокурора, заявление, протест, процессуальное право, процессуальная обязанность, возраст.

В статье рассматривается понятие правового статуса прокурора в гражданском процессе, его актуальное значение, а также принципы и формы участия прокурора. Кроме того, анализируются проблемы, связанные с правовым статусом прокурора в России. Исследуется национальное законодательство, а также проводится сравнительный анализ норм развитых стран. На основе полученных данных сформулированы научно обоснованные выводы и практические рекомендации.

KIRISH

Fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomi va uning rivojlanish istiqbollari bugungi kunda huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlarining chuqurlashuvi jarayonida prokurorning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardagi ishtirokini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishi dolzarb masalalardan biridir. Sud-huquq sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik protsessining samaradorligini oshirish, adolatni ta'minlash va davlat manfaatlarini himoya qilishni eng yuqori darajaga ko'tarishni maqsad qilgan. Shu maqsadda, prokurorning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ishtirok etishining roli va huquqiy maqomi to'g'risidagi masala dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prokuror, fuqarolik protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish va sud qarorlarining qonuniyligini ta'minlashda alohida rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida prokuror ishtirokining asosiy mezonlari va vakolatlari belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bu jarayonda hali ham ayrim kamchiliklar va qiyinchiliklar mavjud. Shu sababli, fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomini takomillashtirish va uning samarali ishtirokini ta'minlash zaruriyati mavjud.

Shu bilan birga "Yangi O'zbekiston – yangi sud" tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur maqola fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomini va uning rivojlanish istiqbollari masalasini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida prokurorning huquqiy maqomi, uning sudlardagi ishtiroki va boshqa huquqiy vazifalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarda prokuror ishtirokining tajribasi va ularning O'zbekiston qonunchiligiga integratsiya qilinishi imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Maqolada fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomini aniqlash va tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan hamda prokuror ishtirokining samaradorligini oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maqola ilmiy izlanishlar, yuridik adabiyotlar, amaliy tajriba va xorijiy tajribani tahlil qilish orqali fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib beradi. Bu masala nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, yuridik sohadagi mutaxassislar va qonun ijodkorlari uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Ushbu ishda yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidan tashqari, xorijiy davlatlarning (Germaniya, Fransiya, Rossiya, AQSh kabi) tajribalari ham ko'rib chiqiladi. Fuqarolik protsessidagi prokurorning ishtirokini yanada samarali qilish uchun zarur bo'lgan yuridik, tashkiliy va amaliy choralar taklif etiladi. Ushbu monografiya fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomini yaxshilash va uning samarali ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ilmiy yondashuvni taklif etadi va qonunchilikni takomillashtirishga oid muhim tavsiyalar beradi.

2015-yil 17-noyabrda qabul qilingan "Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi Bosh prokurorning buyrug'i esa prokurorlarning fuqarolik sudlarida ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlash, fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilishi ta'kidlanadi. Prokurorlarning ishtiroki jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim omilga aylanadi.

Bundan tashqari, prokurorning sudlarda ishtirok etishi, sudlarning adolatli faoliyat ko'rsatishi va qonunbuzilishlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Prokuror sud qarorlarini ko'rib chiqish va aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish orqali sudning samarali ishlashini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, fuqarolik ishlarini ko'rishda prokurorning ishtirokini kengaytirishga, huquqiy adolatni ta'minlashga va davlatning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Prokurorlarning huquqiy maqomini kuchaytirish orqali, O'zbekistonning fuqarolik protsessual tizimi, fuqarolar va davlat manfaatlarini himoya qilishda muhim qadamlarni amalga oshirgan bo'ladi. Bu qonunlar va normativ hujjatlar, fuqarolik sudlarida ishtirok etuvchi barcha tomonlar, shu jumladan prokurorlar uchun aniq me'yorlarni belgilab beradi va sud tizimining ishonchliligini mustahkamlaydi.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, fuqarolik ishlarini yuritishda prokurorning odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxs sifatida e'tirof etilishining sababi ham aynan uning fuqarolik ishlarini yuritishdagi huquqiy maqomi bilan chambarchas bog'liqdir. [1] Chunki prokuror qonunda nazarda tutilgan hollarda va o'zining da'vo arizasi orqali ko'rilayotgan ishlarda bevosita sudda ishtirok etib, tomonlarning qaysi biri da'vogar yoki javobgar qonuniy, asosli va adolatli yo'lda bo'lsa, prokuror aynan shu shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi **"Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'chimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi [2] 11-son Farmonining 5-bandida alohida Bosh prokuratura hamda Oliy sudning barcha bosqichlardagi sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizmni joriy etish bo'yicha **Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha ixtisoslashgan prokurorlar korpusi** (keyingi o'rinlarda – Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi) tashkil etish belgilangan. Ushbu Farmonning 6-bandida bevosita **ixtisoslashgan prokurorlar korpusining asosiy vazifalari etib:**

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun hamda protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda sudlarda ishlarni ko‘rishda prokuror vakolatini ta‘minlash;

sud protsessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalangan holda odil sudlov faoliyatining samarali amalga oshirilishiga ko‘maklashish, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda davlat ayblovinini faqat qonunga asoslanib, xolislikni saqlagan holda sifatli qo‘llab-quvvatlash;

fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo‘li bilan samarali himoya qilinishiga erishish” kabi vazifalar yuklatilgan.

Bu o‘z o‘rnida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi **“Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi [3] 12-son Farmonining 1-bandi bilan odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashish bo‘yicha ixtisoslashgan prokurorlar korpusi (keyingi o‘rinlarda – Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi) faoliyatida 2023-yil 1-sentyabrga qadar **“Sudlarda prokuror ishtiroki”** axborot tizimini yaratib, dastlab sinov tarzida ishga tushirilishi hamda 2024-yildan amaliyotga to‘liq joriy etish tashabbusi nazarda tutilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy huquqiy tahlil usullari qo‘llaniladi.

IV. Muhokama

2023-yil 25-dekabrda “**Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**”gi [4] Qonunning 5-bandiga asosan Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasiga quyidagicha tahrirda o‘zgartirish kiritilgan: “Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da‘vo arizasi (arizasi) asosida qo‘zg‘atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin. Prokuror boshqa shaxslarning arizalari bilan qo‘zg‘atilgan ishning muhokamasida o‘z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas.

Agar fuqaro sog‘lig‘ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudda o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlariga da‘vo arizasini (arizani) – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga esa – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o‘rinbosarlari taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlariga da‘vo arizasini (arizani) taqdim etishga haqli”.

2023-yil 25-dekabrda qonun o‘zgarishlari ham prokurorning fuqarolik ishlari bo‘yicha ishtirokini yanada aniqroq belgilaydi. Yangi tahrirda prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishtirok etishi mumkin, bu esa prokurorning sud protsessida mustaqil va xolis ishtirok etishini ta‘minlaydi. Bunday o‘zgarishlar, bir tomondan, sudlarning xolisligini oshirishga, ikkinchi tomondan esa, fuqarolarning sud va prokuraturaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2024-yil 30-sentyabrdagi **“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko‘rishda prokurorning vakolatlarini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”**gi [5] Qonunning 1-moddasi 1-bandi bilan Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasiga quyidagicha tahrirda o‘zgartirish kiritilgan: “Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar, davlat mulki, davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash va davlat budjetidan undiruvlar bilan bog‘liq ishlarda yoki prokurorning da‘vo arizasi (arizasi) asosida qo‘zg‘atilgan ishlarda ishtirok etishi mumkin. Prokuror boshqa shaxslarning arizasi bilan qo‘zg‘atilgan ishning muhokamasida o‘z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas.

Prokuror davlat manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin”.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**gi [6] PF–60-sonli Farmonida 17-maqсад sifatida “Qonuniylikni qat’iy ta‘minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish” asosiy maqsadlardan biri sifatida ilgari surilgan.

Ushbu Farmon asosida amalga oshirilayotgan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida prokuratura faoliyatini shaffof va adolatli qilish, sud tizimida yangi mexanizmlar yaratish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu o‘zgarishlar fuqarolik sudlarida prokurorning roli va ahamiyatini sezilarli darajada oshirishga, shuningdek, davlatning qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy maqomi va uning rivojlanish istiqbollari sohasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, ayniqsa so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. 2023-yilning yanvar oyida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni va unga qo‘shimcha sifatida kiritilgan ixtisoslashgan prokurorlar korpusi tashkil etilishi prokurorning fuqarolik ishlari bo‘yicha ishtirokini samarali ta‘minlashga qaratilgan yangi mexanizmni yaratadi. Bu o‘zgarishlar sud-huquq tizimida prokuror ishtirokini kuchaytirib, davlat manfaatlarini himoya qilishni, sudlarning xolisligini ta‘minlashni, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi.

XULOSA

Shu sababli, prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etishining samaradorligini yanada oshirish va huquqiy maqomini takomillashtirish uchun qonunchilikdagi barcha o‘zgarishlar va yangi mexanizmlar amaliyotga joriy etilishi zarur. Bunday o‘zgarishlar, o‘z navbatida, O‘zbekistonning sud-huquq tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada oshirib, fuqarolarning, tadbirkorlarning, shuningdek, davlat manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda ixtisoslashgan prokurorlar korpusining tashkil etilishi prokurorlarning fuqarolik ishlari bo‘yicha amaliy ishtirokini yanada samarali va xolis ta‘minlashga yordam beradi, natijada sudlarda adolatli va qonuniy qarorlar qabul qilish imkoniyati oshadi. Bu esa O‘zbekistonning

huquqiy va demokratik tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi va fuqarolik sud ishlarining ishtirokchisi sifatida prokurorning huquqiy maqomining dolzarbligi va ahamiyatliligi sababli ushbu sohadagi islohotlarni o'rganib, u bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Ma'sul muharrirlar: y.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov, y.f.n., prof. D. Y. Xabibullayev. – "Lesson press" nashriyoti. 2020. -607 b (158bet).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'chimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6358976>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-12-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6358913>
4. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-887-сон Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-6708694>
5. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-968-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-7121954>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>